TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ T.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
4-bosqich Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga 7-semestr uchun
« Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og‘zaki

Mavzu	1-QISM	2-QISM	3-QISM	4-QISM	5-QISM
1	Innovatsiya tushunchasi va uning pedagogik mazmuni haqida ma’lumot bering. T.I. innovatsiya, lotincha innovatio, yangilanish, yangilik kiritish, amaliyotga joriy etish	Innovatsion faoliyat tushunchasi va tuzilishi haqida ma’lumot bering. T.I. innovatsion faoliyat, muammoni ko‘ra bilish, axborot izlash, loyihalash, tajriba, refleksiya	Pedagogik innovatsiyaning mohiyati va asosiy belgilarini izohlang. T.I. pedagogik innovatsiya, yangilik, maqsadga yo‘naltirilganlik, amaliy qo‘llanilish, samaradorlik, tizimlilik	Boshlang‘ich ta’limni modernizatsiyalashda innovatsiyalarning o‘rni haqida ma’lumot bering. T.I. modernizatsiya, o‘quvchi faoliyatiga yo‘naltirish, tanqidiy fikrlash, raqamli resurslar	Zamonaviy boshlang‘ich ta’limning rivojlanish tendensiyalari haqida ma’lumot bering. T.I. raqamlashtirish, individuallashtirish, differensiallashtirish, inklyuziv ta’lim, integratsiya, fasilitator
1	“Yangilik” va “innovatsiya” tushunchalari o‘rtasidagi farqni misollar asosida tushuntiring. T.I. yangilik, innovatsiya, joriy etish, natijani baholash, takomillashtirish	Innovatsion faoliyatning bosqichlarini sanab, izohlang. T.I. muammoni aniqlash, diagnostika va tahlil, g‘oya tanlash, loyihalash, joriy etish, monitoring, refleksiya	Pedagogik innovatsiya turlarini boshlang‘ich ta’limdan misollar keltirib izohlang. T.I. mazmuniy, metodik, texnologik, tashkiliy, baholash, boshqaruv innovatsiyalari	Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalarning asosiy yo‘nalishlarini yoritib bering. T.I. shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta’lim, loyiha, hamkorlik, formativ baholash	Innovatsiyalarni boshlang‘ich ta’limga joriy etish shartlari va muammolari haqida ma’lumot bering. T.I pedagogik maqsad, innovatsion kompetentlik, yosh xususiyatlari, resurslar, monitoring
2	Yangilik, innovatsiya va innovatsion jarayon tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi haqida ma’lumot bering. T.I. yangilik, innovatsiya, innovatsion jarayon, joriy etish	Mazmuniy innovatsiyalarning mohiyatini boshlang‘ich ta’lim misolida izohlang. T.I. o‘quv mazmunini yangilash, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriq	Texnologik innovatsiyalarning boshlang‘ich ta’limdagi imkoniyatlari haqida ma’lumot bering. T.I. pedagogik texnologiya, raqamli texnologiya, interaktiv resurs	Tashkiliy innovatsiyalar nima va ular dars jarayonida qanday namoyon bo‘ladi? T.I. individual, jufflik va guruhli ish, ta’limni tashkil etish shakllari	Metodik innovatsiyalarning mohiyati va boshlang‘ich ta’limdagi o‘rnini izohlang. T.I. o‘qitish usullari, muammoli ta’lim, loyiha, hamkorlikdagi ta’lim
2	Innovatsiyani tanlash mezonlari haqida ma’lumot bering. T.I. pedagogik maqsad, yosh xususiyati, samaradorlik, resurslar	Innovatsion jarayonning bosqichlarini tahlil qiling. T.I. g‘oya, ishlab chiqish, sinash, joriy etish, tarqatish	Baholash va boshqaruv innovatsiyalarining boshlang‘ich ta’limdagi imkoniyatlarini yoriting. T.I. formativ baholash, portfolio, elektron monitoring	Har qanday yangilik innovatsiya bo‘la oladimi? Fikringizni misollar bilan asoslang. T.I. yangilik, natijadorlik, amaliyot, takomillashtirish	Pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda uchraydigan to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llarini izohlang. T.I. mexanik qo‘llash, tayyorgarlik, resurs cheklanganligi
3	Pedagogik texnologiya tushunchasi va mohiyati haqida ma’lumot bering. T.I. pedagogik texnologiya, maqsad, mazmun, metod, vosita, natija	Pedagogik texnologiya va innovatsion texnologiya o‘rtasidagi farqni tushuntiring. T.I. texnologiya, innovatsion texnologiya, yangilik, samaradorlik	Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilarini sanab, izohlang. T.I. loyihalashtirilganlik, izchillik, natijaga yo‘nalganlik, takrorlanuvchanlik	Ta’lim maqsadi, mazmuni, metod, vosita va natija uyg‘unligi nimani anglatadi? T.I. maqsad, mazmun, metod, vosita, natija, uyg‘unlik	Innovatsion texnologiyalarni boshlang‘ich ta’limda qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot bering. T.I. yosh xususiyati, o‘yin, ko‘rgazmalilik, qiziqish
3	Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tasnifi haqida ma’lumot bering. T.I. o‘quvchiga yo‘naltirilgan, hamkorlik, o‘yinli, axborot texnologiyalari	Texnologiyani darsga moslashtirish tartibini izohlang. T.I. mavzu, sinf, vaqt, imkoniyat, moslashtirish	Hamkorlikdagi ta’lim texnologiyasi va uning boshlang‘ich sinfdagi imkoniyatlarini yoriting. T.I. jufflik, kichik guruh, rollar, umumiy natija	O‘yin texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyatini misollar bilan tushuntiring. T.I. didaktik o‘yin, rolli o‘yin, motivatsiya	Pedagogik texnologiyani tanlashda o‘qituvchi nimalarga e’tibor berishi kerak? Fikringizni asoslang. T.I. maqsad, natija, o‘quvchi imkoniyati, vaqt, vosita
4	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim haqida ma’lumot bering. T.I. o‘quvchi — faol subyekt, qiziqish, qobiliyat, o‘zlashtirish sur’ati	Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini izohlang. T.I. bilim, ko‘nikma, munosabat, amaliy vaziyat	Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining faolligi va individualligini hisobga olish yo‘llari haqida ma’lumot bering. T.I. faollik, individuallik, differensiallashtirish	Kutilayotgan ta’lim natijalari tushunchasini izohlang. T.I. ta’lim natijasi, indikator, o‘lchanuvchanlik	Shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiling. T.I. shaxs, kompetensiya, faoliyat, natija
4	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi rollari haqida ma’lumot bering. T.I. fasilitator, subyekt, hamkorlik	Individuallashtirish va differensiallashtirish o‘rtasidagi farqni tushuntiring. T.I. individual ehtiyoj, daraja, topshiriq, guruhlash	Kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlarning xususiyatlarini misollar bilan yoriting. T.I. hayotiy vaziyat, amaliy qo‘llash, tahlil, xulosa	Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchi kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari haqida fikringizni bayon qiling. T.I. o‘qib tushunish, hisoblash, kommunikativ, ijodiy kompetensiya	Shaxsga yo‘naltirilgan darsni loyihalash bosqichlarini sanab, izohlang. T.I. diagnostika, maqsad, topshiriq, qayta aloqa, refleksiya
5	Raqamli ta’lim texnologiyalari tushunchasi haqida ma’lumot bering. T.I. raqamli ta’lim, elektron resurs, ta’lim platformasi	Raqamli resurslarning didaktik imkoniyatlarini izohlang. T.I. ko‘rgazmalilik, qiziqish, tezkor qayta aloqa, individuallik	Multimedia vositalarining boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni haqida ma’lumot bering. T.I. matn, tasvir, audio, video, animatsiya	Interaktiv topshiriqlarning mohiyati va turlari haqida so‘zlab bering. T.I. moslashtirish, tartiblash, test, o‘yin	Raqamli xavfsizlik tushunchasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida izohlang. T.I. shaxsiy ma’lumot, zararli kontent, ekran vaqti, nazorat
5	Raqamli vositani pedagogik maqsadga muvofiq tanlash mezonlarini yoriting. T.I. maqsad, yosh xususiyati, natija, qulaylik	Raqamli vosita qo‘llashning o‘zi innovatsiya hisoblanadimi? Fikringizni asoslang. T.I. texnologiya, pedagogik maqsad, natija	Elektron darslik va ta’lim platformalaridan foydalanish imkoniyatlari haqida ma’lumot bering. T.I. elektron darslik, platforma, mustaqil ta’lim	Raqamli vositalarni qo‘llashning cheklovlari va xavflarini tahlil qiling. T.I. ortiqcha foydalanish, sog‘liq, e’tibor, o‘qituvchi tayyorgarligi	Boshlang‘ich sinf mavzusi asosida raqamli topshiriq loyihasini tuzish tartibini tushuntiring. T.I. maqsad, vosita, topshiriq, baholash
6	Interfaol va faol o‘qitish metodlari haqida umumiy ma’lumot bering. T.I. faol metod, interfaol metod, o‘quvchi ishtiroki, hamkorlik	“Aqliy hujum” metodining mohiyati va bosqichlarini izohlang. T.I. g‘oya, fikr to‘plash, tanqid qilmaslik, tahlil	“Klaster” metodi nima va undan boshlang‘ich sinfda qanday foydalanish mumkin? T.I. markaziy tushuncha, bog‘lanish, grafik tashkilotchi	“BBB” (Bilaman–Bilishni xohlayman–Bilib oldim) metodini tushuntiring. T.I. jadval, oldingi bilim, savol, yangi bilim	“Jigsaw” metodining tashkil etilishini izohlang. T.I. asosiy guruh, ekspert guruh, o‘rgatish
6	Debat metodining mohiyatini va boshlang‘ich ta’limdagi imkoniyatlarini yoriting. T.I. fikr bildirish, dalil, qoida, hurmat	Keys-stadi metodi haqida ma’lumot bering. T.I. keys, vaziyat tahlili, yechim, asoslash	Loyiha metodining interfaol metodlar tizimidagi o‘rnini izohlang. T.I. muammo, reja, mahsulot, taqdimot	Metod tanlash algoritmini bosqichma-bosqich tushuntiring. T.I. maqsad, mavzu, yosh xususiyati, vaqt, natija	Interfaol metodlarni qo‘llashda o‘qituvchi yo‘l qo‘yadigan xatolar va ularning oldini olish yo‘llarini tahlil qiling. T.I. maqsadsizlik, vaqt, nazorat, refleksiya
7	STEAM yondashuvining mazmuni haqida ma’lumot bering. T.I. fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika	STEAM ta’limning boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyatini izohlang. T.I. tadqiqot, ijodkorlik, amaliy faoliyat	Fanlar va amaliy faoliyat uyg‘unligi nimani anglatadi? T.I. integratsiya, amaliy faoliyat, mahsulot	Muammoli-vazifaviy topshiriqlarning mohiyatini izohlang. T.I. muammo, vazifa, izlanish, yechim	Boshlang‘ich sinflarda STEAM loyihalariga misollar keltiring va tahlil qiling. T.I. maket, tajriba, kuzatish, taqdimot
7	STEAM va an’anaviy ta’lim o‘rtasidagi farqni tushuntiring. T.I. tayyor bilim, izlanish, faoliyat, natija	STEAM topshirig‘ining tuzilishi haqida ma’lumot bering. T.I. mavzu, maqsad, materiallar, bosqichlar, natija	STEAM faoliyatida “san’at” yo‘nalishining o‘rnini izohlang. T.I. ijodkorlik, dizayn, estetika	STEAM loyihalarini baholash yo‘llari haqida ma’lumot bering. T.I. mezon, kuzatuv, mahsulot, refleksiya	Boshlang‘ich sinfda STEAM faoliyatini tashkil etishdagi qiyinchiliklar va ularni hal etish yo‘llarini tahlil qiling. T.I. vaqt, material, guruh ishi, tayyorgarlik
8	Integratsiya tushunchasi va uning pedagogik mohiyati haqida ma’lumot bering. T.I. integratsiya, birlashtirish, yaxlitlik, ta’lim mazmuni	Ta’lim mazmunini integratsiyalash nimani anglatadi? T.I. mazmun, bog‘lanish, umumiy mavzu, tizim	Integratsiyaning maqsad va vazifalari haqida so‘zlab bering. T.I. yaxlit bilim, kompetensiya, ortiqcha takrorni kamaytirish	Boshlang‘ich ta’limda integratsiyaning afzalliklarini sanab, izohlang. T.I. yaxlit dunyoqarash, motivatsiya, vaqt tejash, hayotiy bog‘liqlik	Integratsiyaning didaktik imkoniyatlarini tahlil qiling. T.I. bilimni tizimlashtirish, ko‘nikma, fanlararo aloqa
8	Integratsiya va differensiatsiya tushunchalarini taqqoslang. T.I. birlashtirish, ajratish, fan mazmuni	Integratsiyalashgan ta’lim va fanlarga bo‘lib o‘qitishning farqini yoriting. T.I. alohida fan, umumiy mavzu, yaxlit idrok	Integratsiyaning ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarini izohlang. T.I. bilim, tafakkur, qadriyat	“Suvni tejash” mavzusi misolida integratsiyani tushuntiring. T.I. tabiiy fan, matematika, ona tili, tasviriy san’at	Integratsiyani amalga oshirishda yo‘l qo‘yiladigan xatolarni tahlil qiling. T.I. mexanik qo‘shish, maqsadsizlik, ortiqcha yuklama
9	Fanlararo bog‘lanish va predmetlararo aloqadorlik tushunchalari haqida ma’lumot bering. T.I. fanlararo bog‘lanish, predmetlararo aloqa, umumiy tushuncha	Fanlararo integratsiyaning boshlang‘ich ta’limdagi o‘rnini izohlang. T.I. yaxlit bilim, umumiy mavzu, faoliyat	Integratsiya darajalari haqida ma’lumot bering. T.I. bog‘lanish, uyg‘unlashtirish, yaxlit birlashtirish	Fan mazmunini uyg‘unlashtirish mexanizmlarini tushuntiring. T.I. umumiy mavzu, bir xil tushuncha, topshiriq, faoliyat	Fanlararo integratsiya shakllarini misollar bilan izohlang. T.I. mavzu, muammo, loyiha, faoliyat
9	Predmetlararo aloqadorlikning turlari haqida ma’lumot bering. T.I. oldingi, hozirgi, keyingi bilimlarga tayanish	Integratsiyalashgan mavzu tanlash mezonlarini yoriting. T.I. umumiy tushuncha, yosh xususiyati, dastur talabi	Fanlararo integratsiyani amalga oshirishda o‘qituvchining vazifalarini izohlang. T.I. rejalashtirish, hamkorlik, dastur tahlili	Boshlang‘ich sinf fanlari o‘rtasidagi integratsion bog‘lanishlarga misollar keltiring. T.I. o‘qish, ona tili, matematika, tabiiy fanlar, tarbiya	Fanlararo integratsiya natijalarini baholash yo‘llarini tahlil qiling. T.I. indikator, kuzatuv, topshiriq, refleksiya
10	Integratsiyalashgan darsni loyihalash texnologiyasi haqida ma’lumot bering. T.I. dars loyihasi, maqsad, mazmun, faoliyat, natija	Dars maqsadi, mazmuni, faoliyat va natija uyg‘unligini izohlang. T.I. maqsad, mazmun, faoliyat, natija, uyg‘unlik	Integratsion dars modelini tushuntiring. T.I. asosiy fan, yordamchi fanlar, umumiy mavzu, faoliyat	Integratsiyalashgan dars bosqichlarini sanab, izohlang. T.I. motivatsiya, yangi bilim, amaliy faoliyat, mustahkamlash, refleksiya	Integratsiyalashgan topshiriqlar tuzish tartibini yoriting. T.I. hayotiy vaziyat, ko‘p fanli topshiriq, yechim
10	Integratsiyalashgan dars turlari haqida ma’lumot bering. T.I. mavzuviy dars, loyihaviy dars, bloklashtirilgan dars	Integratsiyalashgan darsda asosiy va yordamchi fan mazmunini ajratish usullarini izohlang. T.I. dastur, tushuncha, bog‘lanish nuqtalari	Integratsiyalashgan dars uchun metod va vositalarni tanlashni asoslang. T.I. interfaol metod, ko‘rgazma, raqamli vosita	Integratsiyalashgan darsda vaqtni taqsimlash va faoliyatni tashkil etish yo‘llarini tushuntiring. T.I. 45 daqiqa, bosqich, guruh ishi	Integratsiyalashgan dars ishlanmasini tahlil qilish mezonlarini ayting. T.I. maqsad aniqligi, bog‘lanish, faollik, natija
11	O‘qish va ona tili fanlarini integratsiyalashning mohiyati haqida ma’lumot bering. T.I. o‘qish, ona tili, matn, uyg‘unlik	Matn bilan ishlash jarayonida integratsiya imkoniyatlarini izohlang. T.I. matnni o‘qish, tahlil, til birliklari, mazmun	Nutqiy faoliyat turlarini integratsiyalash haqida ma’lumot bering. T.I. tinglash, gapirish, o‘qish, yozish	Lug‘at boyligini rivojlantirishning integratsion yo‘llarini yoriting. T.I. yangi so‘z, lug‘at ishi, ma’no, qo‘llash	O‘qish va ona tili mazmunini uyg‘unlashtirishning afzalliklarini tahlil qiling. T.I. yaxlit nutq, tushunish, savodxonlik
11	Integratsiyalashgan topshiriqlar majmuasi nima? Misollar bilan tushuntiring. T.I. matn, savol, til mashqi, ijodiy topshiriq	Matn asosida o‘qib tushunish va til mashqlarini bog‘lash usullarini izohlang. T.I. savol, grammatik topshiriq, mazmun	Og‘zaki va yozma nutqni birgalikda rivojlantiruvchi topshiriqlarni tahlil qiling. T.I. suhbat, bayon, insho, takrorlash	Badiiy matn asosida ona tilidan integratsiyalashgan dars fragmentini loyihalash tartibini ayting. T.I. matn tanlash, maqsad, topshiriq, baholash	O‘qish va ona tili integratsiyasida o‘quvchi kompetensiyalari qanday rivojlanadi? Fikringizni asoslang. T.I. o‘qib tushunish, kommunikativ kompetensiya, ijodiy fikrlash

12	Matematika va boshqa fanlar mazmunini integratsiyalash haqida ma’lumot bering. T.I. matematika, tabiiy fanlar, o‘qish, texnologiya	Matematik bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash yo‘llarini izohlang. T.I. hayotiy masala, hisob-kitob, tahlil	Matematika va tabiiy fanlar integratsiyasiga misollar keltiring. T.I. o‘lchash, kuzatish, jadval, tajriba	Matematika va o‘qish fanlari mazmunini uyg‘unlashtirish yo‘llarini yoriting. T.I. matnli masala, tushunish, mantiqiy fikrlash	Matematika va texnologiya fanlari integratsiyasining imkoniyatlarini tushuntiring. T.I. model, o‘lchov, shakllar, amaliy ish
12	Matnli masalalar orqali integratsiyani qanday amalga oshirish mumkin? T.I. matn, shart, savol, yechim	Hayotiy vaziyat asosida matematik topshiriq tuzish bosqichlarini ayting. T.I. vaziyat, ma’lumot, hisob, xulosa	Tabiiy-ilmiy kuzatuv natijalarini matematik qayta ishlash usullarini izohlang. T.I. kuzatish, jadval, diagramma, taqqoslash	Matematika darslarida kompetensiyalarni integratsion yondashuv asosida rivojlantirish yo‘llarini tahlil qiling. T.I. mantiqiy fikrlash, muammoni yechish, amaliy qo‘llash	Matematika va boshqa fanlar integratsiyasida uchraydigan qiyinchiliklarni va ularni bartaraf etish yo‘llarini bayon qiling. T.I. mazmun mosligi, vaqt, topshiriq murakkabligi
13	Loyiha metodining mohiyati va bosqichlari haqida ma’lumot bering. T.I. muammo, reja, bajarish, mahsulot, taqdimot	Muammoli vaziyat tushunchasi va uni yaratish usullarini izohlang. T.I. qarama-qarshilik, savol, taxmin, izlanish	Kichik tadqiqot nima va u boshlang‘ich sinfda qanday tashkil etiladi? T.I. kuzatish, taxmin, tajriba, xulosa	O‘quvchining mustaqil izlanishini tashkil etish yo‘llari haqida ma’lumot bering. T.I. mustaqil izlanish, manba, yo‘l-yo‘riq, qayta aloqa	Innovatsion topshiriqlarni loyihalash tartibini tushuntiring. T.I. maqsad, muammo, faoliyat, natija, baholash
13	Loyiha turlari va ularning boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni haqida ma’lumot bering. T.I. individual, guruhli, qisqa muddatli, amaliy loyiha	Muammoli ta’limning bosqichlarini sanab, izohlang. T.I. muammoni qo‘yish, taxmin, tekshirish, xulosa	Tadqiqotchilik faoliyatida o‘qituvchining rolini yoriting. T.I. yo‘naltirish, savol berish, kuzatish, qo‘llab-quvvatlash	Integratsiyalashgan loyihaga misol keltiring va tahlil qiling. T.I. umumiy mavzu, fanlar, mahsulot, taqdimot	Loyiha va tadqiqot faoliyati natijalarini baholash yo‘llarini ayting. T.I. mezon, mahsulot, jarayon, o‘z-o‘zini baholash
14	Boshlang‘ich ta’limda innovatsion faoliyatni baholash haqida ma’lumot bering. T.I. ta’lim natijalari, baholash, innovatsiya samaradorligi	Baholash mezonlari va indikatorlarining mohiyatini izohlang. T.I. mezon, indikator, daraja, tavsif	Formativ baholash haqida ma’lumot bering. T.I. jarayon, qayta aloqa, rivojlanish, tuzatish	Kuzatuv metodining innovatsion dars samaradorligini aniqlashdagi o‘rnini yoriting. T.I. kuzatuv varaqasi, faollik, natija	Monitoring tushunchasi va uning bosqichlarini izohlang. T.I. ma’lumot to‘plash, tahlil, xulosa, tuzatish
14	Formativ va summativ baholash o‘rtasidagi farqni tushuntiring. T.I. jarayon, yakun, qayta aloqa, natija	O‘zaro baholash va o‘z-o‘zini baholashning o‘rni haqida ma’lumot bering. T.I. hamkor, refleksiya, mezon, mas’uliyat	Baholash varaqasi va rubrikani tuzish tartibini yoriting. T.I. rubrika, daraja, indikator, ball	Innovatsion dars samaradorligini tahlil qilish bosqichlarini ayting. T.I. kuzatish, natijani solishtirish, xulosa, takomillashtirish	Baholashda uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo‘llarini bayon qiling. T.I. mezonning noaniqligi, sub’ektivlik, qayta aloqaning yo‘qligi
15	Innovatsion-integratsion dars loyihasi uchun mavzu tanlash tartibini izohlang. T.I. mavzu, dastur, yosh xususiyati, integratsiya imkoniyati	Maqsad–faoliyat–natija uyg‘unligini tushuntiring. T.I. maqsad, faoliyat, natija, mezon	Integratsiya xaritasi nima va uni tuzish tartibi qanday? T.I. markaziy mavzu, fanlar, bog‘lanish, topshiriq	Dars loyihasida innovatsion metodlarni tanlashni asoslang. T.I. metod, bosqich, vaqt, natija	Dars loyihasi uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish yo‘llarini yoriting. T.I. indikator, rubrika, refleksiya
15	Innovatsion-integratsion dars loyihasining tuzilishi haqida ma’lumot bering. T.I. maqsad, vazifa, jihoz, bosqich, baholash	Dars loyihasini taqdim etish va himoya qilish tartibini izohlang. T.I. taqdimot, asoslash, savol-javob, ekspert baho	Microteaching usulining mohiyatini va dars fragmentini namoyish etish tartibini tushuntiring. T.I. qisqa fragment, kuzatish, tahlil, refleksiya	Dars loyihasini takomillashtirish yo‘llarini ayting. T.I. tahlil, fikr-mulohaza, tuzatish, qayta loyihalash	Innovatsion-integratsion dars loyihasida o‘qituvchi kompetensiyalari qanday namoyon bo‘ladi? Fikringizni asoslang. T.I. loyihalash, tanlash, tashkil etish, baholash